

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

No 4

2025

APREL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCES

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

TDU
DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
1931



TULON KARIMOV NOMIDADI
TOSHKENT DAVLAT TEKHNIKA UNIVERSITETI
TDTU

1955
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI

TDF
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT KUVO - TEKNOLOGIYA
AKHİMET - QURILISH UNIVERSITETI
1991

TJZPI
TOSHKENT KUVO - TEKNOLOGIYA
AKHİMET - QURILISH UNIVERSITETI
1991

TZPI
TOSHKENT POLYTECHNICK INSTITUTE
1950



MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otobek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat texnika universiteti

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagি 360/5-son
qarori bilan “Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati”ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha “Muhandislik va
iqtisodiyot” jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	



DAVLAT XARIDLARI JARAYONINI BOSHQARISH VA NAZORAT QILISHNING MUHIM JIHATLARI

Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat xaridlari tizimini boshqarish va nazorat qilish jarayonlari chuqur tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xalqaro standartlar asosidagi tizimlarning joriy etilishi, shuningdek, bu jarayonda shaffoflik, samaradorlik va korrupsiyaviy xatarlarni kamaytirish mexanizmlari yoritilgan. Maqolada statistik ma'lumotlar va jadval asosida amaliy tahlil olib borilib, ilmiy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: davlat xaridlari, boshqaruv, nazorat, shaffoflik, raqobat, korrupsiyaga qarshi kurash, elektron tender, O'zbekiston, xalqaro tajriba.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the processes of management and control of the public procurement system. The reforms being implemented in the field of public procurement in the Republic of Uzbekistan, the introduction of systems based on international standards, as well as mechanisms for transparency, efficiency and reducing corruption risks in this process are highlighted. The article conducts a practical analysis based on statistical data and tables and develops scientific recommendations.

Keywords: public procurement, management, control, transparency, competition, fight against corruption, electronic tender, Uzbekistan, international experience.

Аннотация: В статье представлен углубленный анализ процессов управления и контроля системы государственных закупок. Освещены реформы, реализуемые в сфере государственных закупок в Республике Узбекистан, внедрение систем, основанных на международных стандартах, а также механизмы обеспечения прозрачности, эффективности и снижения коррупционных рисков в этом процессе. В статье проводится практический анализ на основе статистических данных и таблиц, разрабатываются научные рекомендации.

Ключевые слова: государственные закупки, управление, контроль, прозрачность, конкуренция, борьба с коррупцией, электронные тендеры, Узбекистан, международный опыт.

KIRISH

Davlat xaridlari iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, budjet mablag'larining samarali va maqsadli sarflanishini ta'minlashda beqiyos rol o'yaydi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan davlat xaridlari yalpi ichki mahsulotning 15-30% ini tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasida esa bu ko'rsatkich 2023-yil yakuniga ko'ra 22,7% ni tashkil etdi[1].

Mamlakatda so'nggi yillarda davlat xaridlari tizimini liberalallashtirish va raqobat muhitini kengaytirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2021-yilda Elektron davlat xaridlari tizimi joriy etildi va bu orqali 2023-yil yakuniga qadar 340 mingdan ortiq tenderlar o'tkazilib, 60 trln so'mlik shartnomalar tuzilgan.

Biroq mavjud natijalarga qaramay, tizimda hali ham muammolar saqlanib qolmoqda. Transparency International tashkilotining 2023-yilgi Global Korrupsiya Indeksida O'zbekiston 180 ta davlat orasida 126-o'rinni egallagan. Bu esa davlat xaridlari tizimidagi shaffoflik va nazorat mexanizmlarining kuchaytirilishini taqozo etadi.

Shu bois, mazkur maqolada davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning dolzarb jihatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, milliy qonunchilik, amaliyat, xalqaro tajriba, shuningdek, O'zbek olimlari fikrlari asosida kompleks baholash amalga oshiriladi.

Davlat xaridlari davlat buyurtmachilarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini



pulli asosda ta'minlash jarayonidir. Bizning fikrimizcha, davlat xaridlari quyidagicha ta'rif berilishi uning mohiyatini kengroq ochib beradi. Davlat xaridlari davlat buyurtmachilarining ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni belgilangan talablar va tartib-taomillar asosida sotib olish jarayoni.

Davlat buyurtmachilari ikkita yirik guruhga bo'linadi:

1) Budget buyurtmachilari. Budget buyurtmachilari deganda quyidagi tashkilot va muassasalar tushuniladi:

davlat organlari va muassasalari;

budget tashkilotlari;

xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan budget mablag'larini oluvchilar;

davlat maqsadli jamg'armalari;

budget tashkilotlarda tashkil etilgan boshqa jamg'armalar;

2) Korporativ buyurtmachilar. Korporativ buyurtmachilarga:

davlat korxonalari;

ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar,

ustav fondida (ustav kapitalida) davlat korxonalari va ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslarning ulushi jami 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar kiradi.

Davlat xaridlari davlat buyurtmachilari faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur bo'ladigan tovar (ish, xizmat)larni mablag'lardan tejamkorlik asosida, muqobil narx va sifatda sotib olishlariga xizmat qiladi. Bu jarayonni amalga oshirishda oldindan belgilangan talablar, shartlar, tartib-taomillar mavjud bo'lib, barcha davlat buyurtmachilari bu talablarga amal qilishlari shart sanaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Deyarli barcha mamlakatlarda davlat xaridlari uchun davlat budgetidan qiladigan xarajatlar salmoqli bo'lib, bu davlat xaridlari boshqarish tizimini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shu nuqtayi nazaridan, budget mablag'laridan samarali foydalanish, buyurtmalarni joylashtirishning oshkoraliqi va shaffofligini ta'minlash, adolatli raqobat rivojlanishi va buyurtmalarni joylashtirishda korrupsiyani oldini olish maqsadida davlat xaridini boshqarish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

K.Thai[2] davlat xaridlari jarayonining mohiyati, usullari va uni boshqarishdagi asosiy tamoyillarni o'rganadi. Muallif davlat xaridlari tizimining samaradorligini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta'minlash va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish bo'yicha muhim tavsiyalar beradi. Ushbu maqola davlat xaridlaring iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini tahlil qilib, har bir bosqichni mukammallashtirishda zamonaviy boshqaruv uslublarining ahamiyatini ta'kidlaydi. Thai, shuningdek, davlat xaridlari tizimining xalqaro andozalar bilan uyg'unligini mustahkamlash yo'llarini ko'rsatib beradi.

O.Hughes[3] kitobida davlat boshqaruvi sohasidagi zamonaviy tendensiyalarni yoritib, davlat xaridlari jarayonini boshqarish bo'yicha keng qamrovli tahlil o'tkazadi. Kitobda davlat xaridlarning moliyaviy boshqaruvi, byudjetlashtirish va nazorat masalalari chuqur tahlil qilingan. Muallif davlat xaridlarning samaradorligi va shaffofligini oshirish maqsadida texnologiyalarni joriy etish, sifat ko'rsatkichlarini baholash va monitoring mexanizmlarini mustahkamlash bo'yicha qator amaliy tavsiyalarini ilgari suradi. Ushbu asar davlat xaridlari bo'yicha boshqaruv strategiyasini ishlab chiqishda nazariy asos va yo'nalishlarni belgilash uchun muhim manbadir.

S.Arrowsmith va P.Kunzlik[4]ning taddiqoti davlat xaridlarda ijtimoiy va ekologik mas'uliyatni inobatga olishning huquqiy va amaliy jihatlarini o'rganadi. Mualliflar davlat xaridlarda yashil siyosatni joriy etish, ekologik va ijtimoiy standartlarni qo'llash, shuningdek, barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi nazorat mexanizmlarini shakllantirish masalalarini tahlil qiladilar. Kitobda davlat xaridlarning boshqarish tizimini rivojlantirish uchun xalqaro tajribalar va yangi qonun hujjatlari asosida amaliy tavsiyalar keltirilgan. Bu asar davlat xaridlari nazorati sohasida ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan yondashuvlar haqida batafsil ma'lumot beradi.



P.Schapper va hamkasbleri[5] davlat xaridlarini boshqarishning analitik asoslarini yoritadilar. Mualliflar davlat xaridlari tizimining samaradorligini oshirish uchun strategik rejalashtirish, nazorat va monitoringning ahamiyatini ta'kidlaydilar. Ushbu maqola davlat xaridlari jarayonlarida moliyaviy resurslardan foydalanishni optimallashtirish va o'z vaqtida nazorat qilish orqali korrupsiyani kamaytirish, raqobatni rag'batlantirish va xaridlarni yanada shaffof qilishga xizmat qiluvchi nazariy yondashuvlarni taklif qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarni amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Metodologik jihatdan maqolada induktiv-empirik tahlil, solishtirma metod, statistik modellashtirish va grafik tahlillardan foydalaniladi. Tadqiqot uchun 2020—2024-yillardorlig'idagi davlat xaridlari statistikasi asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Davlat xaridlari jamiyatda quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajaradi:

ijtimoiy muassasalarini moddiy texnika bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan, maktabgacha ta'lim muassasalari uchun oziq-ovqat, o'yinchoqlar; mакtablar uchun stol-stul, kompyuter texnikalari; sog'liqni saqlash muassasalari uchun tibbiy jihozlar va dori vositalari xaridi shular jumlasidandir.

ijtimoiy infratuzilmani shakllantirishni va yaxshilashni ta'minlaydi. Masalan, yo'llar, ko'priklar qurish, ta'mirlash, jamoat transport vositalarini sotib olish, ichimlik suvi quvurlari va elektr liniyalarini tortish davlat xaridlari orqali amalga oshiriladi.

iqtisodiyotda sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi. Ya'ni, tadbirkorlik subyektlari davlat xaridlari tizimidagi savdolarda g'olib bo'lish uchun mahsulot tannarxi va narxini pasaytirish, sifatini esa oshirish choralar ko'radir.

mablag'larni tejash va ularni sarflash ustidan moliyaviy nazorat ta'minlanadi. Xarid qilishning qonun-qoidalari va xaridlar ustidan nazorat qiluvchi organlar ushbu vazifani amalga oshirilishini ta'minlaydilar.

elektron savdolar rivojlanadi. Bugungi kunda xarid qilish tartib-taomillari maxsus elektron shaklda amalga oshirilayotganligi, xaridlar bo'yicha e'lonlar va tuzilgan shartnomalarni maxsus axborot portalida joylashtirilib borilishi barcha xarid tizimi subyektlaridan elektron savdolarda ishtirot etish bo'yicha zaruriy bilim va texnik jihozlarga ega bo'lishlarini talab etadi.

Davlat xaridlari orqali davlat buyurtmachilari faoliyatlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tovar (ish, xizmat)larni sotib oladilar. Davlat xaridlari mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishiga, samarali ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga ham ko'mak beradi. Davlat ta'lim, tibbiyot, mudofaa, madaniyat, sport sohalarini moliyalashtirish va maqsadli rivojlanish dasturlari amalga oshirish uchun zarur tovar (ish, xizmat)larni xarid qiladi. Bu orqali davlat yirik buyurtmachi sifatida iqtisodiyotni tartibga solishdagi birinchi darajali vazifasini bajaradi. Davlat xaridlari tizimi milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlarda rivojlanishiga, xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga va rivojlantirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Davlat ehtiyojlari" va "Davlat ehtiyojlari uchun buyurtma joylashtirish" tushunchalarining mohiyatini ko'rib chiqar ekanmiz, bunda "davlat ehtiyojlari" tushunchasi "davlat buyurtmasi" tushunchasiga nisbatan kengroq mazmunga ega degan xulosa kelamiz, chunki davlat buyurtmasi davlat ehtiyojlarning umumlashgan va rasmiylashtirilgan ko'rinishi hisoblanadi. Bunda shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bu terminlarning ham mazmuni, ham tarkibi jihatdan amaliyotda ishlatalishi bir xil.

Davlat buyurtmasi deganda, davlat boshqaruv organlarining tovar, ish, xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlari tushunilib, bu ehtiyojlar budget va nobudget fondlarining mablag'lari hisobidan, ya'ni budget va nobudget fondlariga jamg'arilgan soliq to'lovchilarning mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Bu fikrni L.I.Smotskaya ham ilgari suradi va qo'shimcha ravishda bu ehtiyojlarning nimaga asoslanganligini va uni to'g'ri rasmiylashtirish kabi aspektlarga oydinlik kiritadi.

Quyidagi jadvalda ayrim asosiy ko'rsatkichlar taqqoslab berilgan: (1-jadval)



1-jadval.

Ko'rsatkich	2021	2022	2023
Elektron tenderlar ulushi (%)	18.3	23.5	28.1
Korrupsiyaviy holatlar soni	487	530	615
To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar (%)	52.6	47.3	41.8

Ma'lumki, mamlakat miqyosidagi har qanday jarayon shu davlat iqtisodiy-ijtimoiy hayoti uchun juda muhim hisoblanadi. Chunki bu jarayonlarning natijasi, salbiy yoki ijobjiy bo'lishiga qarab, mamlakat aholisiga, davlatning iqtisodiy mexanizmi va uning tarkibiy qismlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Davlat xaridi jarayoni ham ulkan hamda murakkab mexanizm bo'lib, uning to'g'ri tashkil etilganligi va mamlakat iqtisodiyotiga zarar emas, balki yuqori samara keltirishi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham makrodarajadagi qanday jarayon yuz bermasin, shu jumladan, davlat xaridi ham, qonunchilik bilan mustahkamlab qo'yilishi zarur. Aynan qonunchilik davlat xaridi mexanizmini takomillashtirish va uning nazoratini tashkil etishga ko'maklashadi hamda davlat xaridi subyektlarining manfaatlari nohaq buzilishi, qabul qilingan qonun-qoidalardan chetlanishlarni oldini oladi.

O'zbekiston Respublikasida Davlat xaridini tashkil etish va tartibga solishning qator huquqiy-normativ hujjatlari qabul qilingan. Bu qonun hujjatlari orqali davlat budgeti xarajatlarining va ustavida davlat ulushi bor korxonalar mantag'larining samarali, maqsadli sarflanishi hamda ularning shaffofligi ta'minlanadi.

Mamlakatimizda o'tgan davr mobaynida xalqaro tajriba va iqtisodiy islohotlar talablaridan kelib chiqqan holda davlat xaridlari tashkil etish bo'yicha o'ziga xos tizim shakllantirildi. Bunda asosiy urg'u budget mantag'laridan samarali foydalanish, xarid jarayonida kichik biznes subyektlariga ko'proq imtiyozlar berish, hamda davlat xaridlari tizimining mavjud mexanizmini xalqaro andozalarga mos holda tashkil etish xususiyatlariga qaratildi.

O'z navbatida davlat xaridlari tizimida zamonaviy shakl va tartib-taomillarini ishlab chiqish hayotiy zaruratga aylandi. Davlat xaridlari takomillashtuvi ushbu sohaning mukammal qonunchilik bazasini yaratishga va uni xalqaro tajribaga mos ravishda rivojlantirishga ham bevosita uzviy bog'liqdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, davlat xaridlari tizimini takomillashtirish uchun quyidagi asosiy yo'nalishlarda kompleks yondashuv zarur:

Huquqiy bazani takomillashtirish: "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun yangilanishi, elektron tenderlarning majburiyligini belgilovchi normativlar joriy qilinishi lozim.

Markazlashtirilgan monitoring tizimi: "E-Procurement" axborot tizimiga nazorat moduli kiritilishi, real vaqtida qonunbuzilishlarni aniqlash imkoniyatini beradi.

Korrupsiyaga qarshi strategiyalarni kuchaytirish: Bosh prokuratura huzuridagi Antikorrupsiya agentligining davlat xaridlari monitoringi vakolatlarini kengaytirish zarur.

Malakali mutaxassislar tayyorlash: Davlat xaridlari sohasida professional sertifikatlash tizimi yo'liga qo'yilishi lozim (masalan, "Certified Public Procurement Officer").

Agar bu islohotlar amalga oshirilsa, 2027-yilgacha korrupsiyaviy holatlar sonini kamida 30% ga kamaytirish, elektron tenderlar ulushini 60% ga yetkazish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilish tizimi holati chuqur tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko'ra, mavjud tizimda shaffoflik va samaradorlik darajasi yetarli emas, korrupsiyaviy xatarlar yuqori. Shu sababli, normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, monitoring tizimlarini markazlashtirish va kadrlar salohiyatini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Kelgusida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar orqali davlat xaridlарining ochiqligini ta'minlash, mantag'larning maqsadli sarflanishi va korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Moliya vazirligi (2024). "2023-yil yakunlari bo'yicha davlat xaridlari statistikasi."
2. Thai, K. V. (2001). Public Procurement Re-Examined. *Journal of Public Procurement*, 1(1), 9–50.
3. Hughes, O. E. (2012). *Public Management and Administration: An Introduction* (4th ed.). Palgrave Macmillan.
4. Arrowsmith, S., & Kunzlik, P. (2009). *Social and Environmental Policies in EU Procurement Law: New Directives and New Directions*. Cambridge University Press.
5. Schapper, P. R., Veiga Malta, J. N., & Gilbert, D. L. (2006). An Analytical Framework for the Management and Reform of Public Procurement. *Journal of Public Procurement*, 6(1), 1–26.
6. Karimov A. (2023). "Davlat xaridlari tizimida shaffoflik va monitoring mexanizmlari." *Moliyaviy tahlil*, №4.
7. Sobirova M. (2024). "Xalqaro amaliyotda davlat xaridlarini nazorat qilish tajribalari." *Iqtisodiyot va moliya*, №2.
8. OECD (2023). *Integrity in Public Procurement: Good Practices*. Paris.
9. World Bank (2022). *Public Procurement Performance Indicators*. Washington, D.C.
10. Hisob palatasi (2023). "Davlat xaridlari bo'yicha yillik hisobot."
11. Transparency International (2023). *Corruption Perceptions Index*. Berlin.

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100